

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

2026 yil I chorakda amalga oshirilgan ishlar:

Viloyatda ta'lim tashkilotlari soni **5 538 ta** tashkil etgan. Shundan, **1 350 ta** (*shundan, 1 275 ta maktab, 19 ta ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasasi hamda 1 ta Prezident, 55 ta nodavlat*) umumta'lim maktablari va **4 1587 ta** (*shundan, 778 ta davlat, 63 ta xususiy, 162 ta DXSH, 3 151 ta oilaviy, 4 ta ilk rivojlanish markazi*) maktabgacha ta'lim tashkilotlari, **1 ta** pedagogik maxorat markazi olib bormoqda.

Qurilish ta'mirlash ishlari. Moddiy texnik bazasi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 27 dekabrda **PQ-393-sonli qarori asosida** Samarqand viloyatida jami **108 ta**, shundan, **82 ta** (*3 ta yangi qurilish, 69 ta rekonstruksiya va 10 ta mukammal ta'mirlash*) umumta'lim maktablarida va **26 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida** (*10 ta yangi qurilish, 13 ta rekonsruksiya qilish va 3 ta mukammal ta'mirlash*) qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

Joriy yilning **1-aprel holatiga** ko'ra, **29 ta** maktab va **1 ta** maktabgacha ta'lim tashkiloti ob'yektlarida ishlar boshlangan, **53 ta** maktab va **25 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarida ishlar boshlanmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashining 2024-yil 30-yanvardagi "Tashabbusli buyudjet jarayonlarini o'tkazish hamda moliyalashtirish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash to'g'risida"gi **KQ-666-IV-sonli qarori** asosida viloyat hokimligi "Yagona buyurtmachi xizmati" DUK buyurtmachiligida 2025-sonli yil "**Tashabbusli byudjet**" loyihasining **2-mavsum** manzilli dasturga kiritilib qurilish ishlari **39 ta** ta'lim tashkilotlarida amalga oshirilmoqda.

Shundan, 32 ta umumta'lim ob'yektlarida qurilish ta'mirlash ishlari 63 % ga, **7 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarida amalga oshirilgan qurilish ta'mirlash ishlari hajmi **74 %** ni amalga oshirildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 29 noyabrda **PQ-407-sonli qarori asosida** Samarqand viloyatida jami **29 ta**, shundan, **9 ta** (*9 ta mukammal ta'mirlash*) umumta'lim maktablarida va **20 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida** (*8 ta yangi qurilish, 10 ta rekonsruksiya qilish va 2 ta mukammal ta'mirlash*) qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

Joriy yilning **1-chorak yakuni bilan**, **8 ta** maktab va **17 ta** maktabgacha ta'lim ob'yektlarida ishlar boshlangan, **1 ta** maktab va **3 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarida **ishlar boshlanish arafasida**.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024 yil 28 martda **PQ-141-sonli qarori asosida** Samarqand viloyatida jami **68 ta**, shundan, **47 ta** (*1 ta yangi qurilish, 40 ta rekonstruksiya va 6 ta mukammal ta'mirlash*) umumta'lim maktablarida va **21 ta maktabgacha ta'lim tashkilotlarida** (*12 ta yangi qurilish, 9 ta rekonsruksiya qilish*) qurilish-ta'mirlash ishlari amalga oshirilishi belgilangan.

Joriy yilning 1-choragida, **29 ta** maktab va **12 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarida ishlar boshlandi, **18 ta** maktab va **9 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlari ob'yektlarida ishlar boshlanish arafasida.

Maktabgacha ta'limi yo'nalishida:

Viloyatda **392 672 nafar** maktabgacha yoshdagi bolalarning **288 947 nafari** (**73,6 foizi**) **4 158 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlariga qamrab olingan.

Birinchidan, yangidan **94 ta** (1 ta davlat, 3 ta DXSH asosidagi va 50 ta oilaviy nodavlat) MTTlar tashkil etilib, shu va boshqa quvvatlar hisobiga qo'shimcha **1 995 nafar** bolalar maktabgacha ta'lim bilan qamrab olindi.

Ikkinchidan, Joriy yilning bugungi kuniga qadar yangidan davlat bog'chasi **Samarqand shahrida** 82-son (180 o'rinli), DXSH asosidagi maktabgacha ta'lim tashkilotlari Ishtixon tumanida 150 o'rinli, Payariq tumanida 90 o'rinli va Bulung'ur tumanida 75 o'rinli maktabgacha ta'lim tashkilotlari foydalanishga topshirildi.

Uchinchidan, Bog'cha tarbiyalanuvchilari o'rtasida **“Shaxmat festivali”** Respublika bosqichida o'g'il bolalar o'rtasida Oqdaryo tumani 6-son DMTT 6 yoshli tarbiyalanuvchisi **Tolibjonov Ibrohim faxrli ikkinchi o'rinni** egalladi.

Maktab ta'limi yo'nalishida:

Viloyatda **1275 ta** umumiy o'rta ta'lim maktablarining umumiy quvvati **637 948 o'rinni** tashkil etib, **785 702 nafar** o'quvchilar ta'lim tarbiya oladi. Umumiy navbatlilik koeffisienti **1,2** tashkil etdi.

Viloyatda umumiy o'rta ta'lim maktablarda jami **62027 nafar** pedagog xodimlar faoliyat ko'rsatadi. Shundan, **6875 nafari** (11,1 foiz) OLIY toifali, **11782 nafari** (19,0%) BIRINCHI toifali, **14876 nafari** (24,0%) IKKINCHI toifali, **21626 nafari** (34,9%) MUTAXASSIS va **6868 nafari** (11,1 %) o'rta maxsus hamda tugallanmagan oliy ma'lumotli pedagog xodimlardir.

Joriy yilning **yanvar-iyun** oylarida o'tkazilayotgan attestatsiyada jarayonlariga jami **31 425 nafar** pedagoglar murojaat qilingan. Shundan, **3 968 nafari** (12,6%) navbatdagi-majburiy, **27 457 nafari** (87,4%) navbatdan tashqari attestatsiyada ishtirok etish uchun murojaat yuborigan. Bugungi kunda **23 391 (74,5%) nafar** pedagoglarning murojaatlari qabul qilinib, ularga attestatsiyada ishtirok etishga ruxsat berildi.

Shuningdek, joriy yilning birinchi choragida jami **4568 nafar**, jumladan maktablarning **3866 nafar**, maktabgacha ta'lim tashkilot(MMT)larining **689 nafar** rahbar va pedagoglarini ishlab chiqarishdan ajralgan holda ta'lim olish 1 oylik malaka oshirishdi.

“Kasbiy rivojlanish kuni” va **“Kasbiy rivojlanish soati”** tadbirlariga 2026 yil yanvar oyidan boshlab **12 ta** fan yo'nalishi bo'yicha **11273 nafar** yetakchi o'qituvchilar, **“Kasbiy rivojlanish soati”** tadbirlarida **37604 nafar** o'qituvchilar ishtirok ta'minlandi.

Joriy yilda viloyatda jami **342 ta** ta'lim tashkiloti (*182 ta maktab 160 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti*) tashqi baholashdan o'tkazish rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunga qadar **64 ta** ta'lim tashkilot (42-ta maktab, 22 ta bog'cha)lari tashqi baholashdan o'tkazildi.

2025-2026-o'quv yilida viloyatga **190 nafar** xorijiy mutaxassislar kelishi rejalashtirilgan bo'lib, bugungi kunda **123 nafar** (*12 nafar Rossiya, 1 nafar AQSH, 3 nafar*

Buyuk Britaniya, 2 nafar Kanada, 9 nafar Misr, 4 nafar Eron, 1 nafar Estoniya, 68 nafar Filippin, 1 nafar Fransiya, Germaniya 2 nafar, Hindiston 19 nafar, Indoneziya 1 nafar, Afrika 7 nafar, Pokiston 7 nafar, Ispaniya 1 nafar va Yaman davlatidan 1 nafar) xorijlik mutaxassis o'qituvchilar faoliyat olib borishmoqda.

Viloyatdagi umumta'lim maktablarida **6052 nafar** xorijiy til fani o'qituvchilari faoliyat olib bormoqda. Shundan **4557 nafari** (77,0 foiz) milliy va xalqaro sertifikatlari ega.

Viloyatdagi **1275 ta** umumta'lim maktablari hamda **781 ta** maktabgacha ta'lim tashkilotlarining barchasiga optik tolali aloqa liniyalari tortilib, internet tarmog'iga ulangan.

Internet tarmog'iga ulangan barcha umumta'lim muassasalari "**Nev Education**" tarif rejasi bo'yicha belgilangan tezlklardan foydalanmoqda. 2025-2026 o'quv yilida informatika sinfxonalar xatlovda o'tkazilib, **261 ta** kompyuter sinfxonalariga ehtiyoj borligi aniqlandi. Shundan, **135 ta** zamonaviy kompyuter sinflari Respublika byudjeti mablag'lari hisobidan ta'minlanadi. Mahalliy byudjet mablag'i hisobidan **126 ta** umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuterlar yetkazib berilmoqda.

Shuningdek, viloyatda umumta'lim maktablarida elektron doskalar xatlovdan o'tkazilib, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining topshirig'iga binoan viloyatdagi barcha maktablardagi mavjud elektron doskalar xatlovdan o'tkazilib vazirlik tomonidan beriladigan 600 dona elektron doskalar taqsimoti qilingan va ehtiyoji sifatida vazirlikga taqdim qilindi.

Viloyatda 2026 yilda "**Besh million sun'iy intellect yetakchisi**" loyihasi bo'yicha reja **64 000 nafarni** tashkil qiladi. Joriy yil birinchi choragida rejaning bajarilishi 11 904 nafar (19%) tashkil qildi.

Joriy yil yanvar-mart oylari davomida O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi tomonidan tavsiya etilgan va Respublika ta'lim markazi tomonidan ishlab chiqilgan **23 917 dona** o'quv uslubiy va badiiy kitoblar umumta'lim maktablari kutubxonalariga yetkazib berildi.

Viloyatda **96 ta** maktablarda o'quvchilarni ishchi va zamonaviy axborot texnologiyalari yo'nalishidagi kasb-hunarga o'rgatish tizimi yo'lga qo'yilgan. Mazkur maktablarda **6 697 nafar o'quvchilarga 2 ta yo'nalishdagi jami 14 turdagi shundan 11 turdagi ishchi kasblarga oid** (*tikuvchi, qandolatchilik, erkaklar sartaroshi, duradgorlik ishlari ustasi, elektromontyor (elektrik), ganch ishlari ustasi, shinalarni muvozanatlovchi, issiqxona ishchisi, alyumin va plastik eshik romlarni ta'mirlovchi, milliy taomlar oshpazi, mebel ishlari ustasi*) va **3 turdagi zamonaviy axborot texnologiyalariga oid** (*yosh dasturchi, veb dizayner, grafika muxarriri*) kasb-hunarlarini o'rgatiladi.

O'quv yilining ayni vaqtiga qadar 2 marotaba (oktyabr va dekabr oylarida) ushbu treninglar o'tkazilgan bo'lib jami **67 654 nafar** o'quvchilar qamrab olindi. Maktablarda "**Farzand tarbiyasida ota-onaning mas'uliyati**" va bolalarning maktabda ta'lim majburiyiligi mavzularida ota-onalar yig'ilishlari o'tkazildi.

Viloyatda barcha umumiy o'rta ta'lim maktablarida "**Hayot go'zal yashash uchun 1001 sabab**" mavzusidagi psixologik salomatlik oyiligi o'tkazildi. Aksiyada viloyatdagi barcha maktablarning **67 654 nafar** o'quvchilari, **2 264 nafar** pedagogik jamoa, **7 554 nafar** ota-onalar qamrab olindi.

Mamlakatimiz maktab o'quvchilari PIRLS 2026 xalqaro tadqiqotida ishtirok etishi belgilangan. Shu maqsadda PIRLS 2026 xalqaro tadqiqotining asosiy sinovida viloyatda

ishtirok etuvchi **20 ta** maktab xalqaro talablar va tasodifiylik tamoyili asosida Ta'limdagi yutuqlarni baholash xalqaro assotsiatsiyasi (IYeA) tomonidan tanlab olingan. Viloyatimizdagi PIRLS 2026 xalqaro tadqiqotida ishtirok etishi belgilangan **20 ta** maktabning **691 nafar** 4-sinf o'quvchilari bilan xam qo'shimcha o'quv mashg'ulotlari olib borilmoqda.

Shuningdek, Asosiy olimpiadaning IV (respublika) bosqichida Samarqand viloyatidan ishtirok etgan o'quvchilar **3 ta oltin, 1 ta kumush** va **3 ta bronza** medallarni qo'lga kiritib umumjamoa hisobida respublika bo'yicha **3-o'rinni** egalladi.

Viloyatdagi 14 ta tuman va 2 ta shaharda joylashgan 760 ta davlat maktabgacha ta'lim tashkilotida "yagona mavsumiy taomnoma" asosida ovqatlantirish tizimi joriy etilib, mahsulotlar sifati va sanitariya talablariga rioya etilishi ustidan nazorat kuchaytirildi. Outsorsing xizmatini ko'rsatuvchi korxonalar bilan jami 2 trillion 395 milliard 721,3 million so'mlik shartnomalar imzolaniib, shartnoma shartlariga muvofiq 7 milliard 191,6 million so'm investisiya kiritish belgilandi hamda hisobot davrida 2 milliard 91,2 million so'mlik investisiya kiritildi;

2026 yil II chorakdagi asosiy vazifalar va erishiladigan ko'rsatkichlar:

MAKTABGACHA TA'LIM YO'NALISHIDA:

Birinchiidan, Viloyatda 3-7 yoshli bolalar sonining o'sishini inobatga olib, qamrovni quyida amalga oshiriladigan tadbirlar orqali **73,6 foiz** saqlanib qolinadi:

- **217 ta**, shundan **10 ta** davlat, **7 ta** davlat-xususiy sheriklik asosidagi va tashabbuskor tadbirkorlardan iborat **200 ta** oilaviy nodavlat MTTlarni tashkil etish orqali **10 790 nafar** bolalarni qamrab olinadi;

- **Qo'shimcha 90 ta** majburiy bir yillik maktab ta'limiga tayyorlov guruhlarini tashkil etilib **2 510 o'rinli** yangi quvvat yaratish.

- Viloyatning Kattaqo'rg'on va Urgut tumanlarida **500 o'rinli** ilk rivojlanish markazi tashkil etiladi.

Ikkinchiidan, Investisiya dasturi asosida jami **26 ta 1 655 o'rinli** davlat MTTlarini (10 ta yangi qurish, 3 ta mukammal ta'mirlash va 13 ta rekonstruksiya qilish) o'z muddatlarida foydalanishga topshirilishini tashkil etish.

Uchinchiidan, Sohada nodavlat sektorning ulushi **47,8 %** (foiz)ga yetkaziladi.

To'rtinchiidan, Bo'sh o'rinlarni malakali va mutaxassis kadrlar bilan to'ldirib boriladi.

Beshinchiidan, yangidan tashkil etiladigan **217 ta** MTTlari va boshqa manbalar hisobiga mingdan ortiq yangi ish o'rinlarini tashkil etish orqali, aholi, xususan ayollar bandligiga ko'maklashiladi.

MAKTAB TA'LIMI YO'NALISHIDA:

Birinchiidan, umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qituvchilar sifat tarkibi **30 foizda 32 foizga** oshiriladi;

Ikkinchiidan, Milliy va xalqaro sertifikat ega o'qituvchilar ulushi **77,1 foizdan 80,3 foizga** yetkaziladi;

Uchinchiidan, yangi baholash tizimi o'tkazilagan maktablar **506 taga** ko'payib, **706 taga** yetkaziladi;

To'rtinchidan, 11 ta hudud, 715 ta umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'quvchilarni maktabga qabul qilish, o'quvchilar harakati onlayn tizimga o'tkaziladi;

Beshinchidan, 2 ta nodavlat umumta'lim tashkilotlari tashkil etish orqali ular sonini 57 taga yetkaziladi;